

Iqtisodiyot fanlari
Economics
Экономика

**XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA O‘TISH TARIXI,
RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA HISOBOTLARNI TAQDIM
ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.**

Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

Tel: +998 999783736

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12742327>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish, uning yuzaga kelish tarixi. Rivojlangan davlatlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlar atamalari, Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asoslar va uning ijobiy hamad salbiy tomonlari keltirib o‘tilgan*

***Kalit so‘zlar:** hisobot, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), moliyaviy natijalar, konseptual asos, Yevropa Ittifoqi*

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish global iqtisodiyotning globallashuvi bilan bog‘liq edi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining paydo bo‘lishining boshlanishi 1973 yilning 29 iyun oyida 10 ta yirik mamlakatlarning (Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Amerika Qo‘shma Shtatlari) buxgalter va auditorlar uyushmasi tomonidan asos solindi.

Kompaniyalar o‘rtasida tegishli shartnoma imzolanib va xalqaro standartlar qo‘mitasi tashkil etilgandan keyinchalik xalqaro buxgalterlar Federatsiyasi bilan o‘zaro aloqa tizimi shakllana boshladi. 1989 yilga kelib u 10 ishtirokchi davlatlarda buxgalteriya amaliyotini umumlashtirdi. Natijada MHHS deb nomlangan qoidalar va tushuntirishlar yaratildi. Zamonaviy shaklda xalqaro standartlar 1989 yildan 1995 yilgacha to‘liq shakllandi, o‘shanda yana uchta Davlat 10 ishtirokchi davlatga qo‘shildi. MHXS

o‘tishning yana bir sababi xorijiy investorlarni jalb qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratish zarurati edi.

Moliyaviy Hisobotlar Xalqaro Standartlari butun jahonda yanada kengroq foydalanilmoqda va tan olinmoqda. Hatto, ba’zi mamlakatlar Moliyaviy Hisobotlar Xalqaro Standartlar (MHXS)ni o‘z standartlaridek o‘zgarishlarsiz ishlatishmoqda, ba’zilari esa mamlakat xususiyatidan kelib chiqib ba’zi o‘zgarishlarni kiritmoqdalar. O‘zining zamonaviy ko‘rinishida xalqaro standartlar 1989 yildan 1995 yilgacha yana uchta davlat 10 ta ishtirokchi davlatga qo‘shilgandan keyin to‘liq shakllangan. 1994 yilga kelib BHXSQ ni nazorat qilish va moliyalashtirish masalalari bilan shug‘ullanuvchi Maslahat Kengashiga asos solindi. 1995 yilda Yevropa Komissiyasi (YeK) BHXSQ va QKXT (Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha komissiyalarning xalqaro tashkiloti) o‘rtasidagi asosiy standartlarni ishlab chiqishni yakunlash to‘g‘risidagi bitimni qo‘llabquvvatlaydi hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga BHXSni qo‘llash majburiyatini yukladi⁶.

2001 yilda Xalqaro moliya standartlari qo‘mitasi qayta tuzildi hisobot berish (HMSQ), buning natijasida Xalqaro Moliya Standartlari Kengashi hisobot MHXS o‘rnini egalladi. 2000 yilda transmilliy kompaniyalar tomonidan qimmatli qog‘ozlarni xalqaro fond bozorlariga joylashtirilishda BHXSQ standartlaridan foydalanishga ruxsat berishni tavsiya etdi va o‘z navbatida shu yili BHXSQ a‘zolari bo‘lgan tashkilotlar BHXSQni qayta tashkil etishni va uning yangi nizomini tasdiqladi. 2001 yilda esa MHXSQ tarkibi va qo‘mitaning yangi nomi e‘lon qilindi va BHXSQ Fondi tashkil etildi. 2001 yil 1 aprelda MHXSQ BHXSQdan standartlarni chop etish va qabul qilish mas‘uliyatini o‘z zimmasiga. MHXSQ amaldagi BHXS va Sharhlash bo‘yicha Doimiy qo‘mitani (ShDQ) tasdiqlaydi. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki Qo‘mita faoliyatini yildan-yilga takomillashtirib va rivojlanib kelgan.

⁶ А.А.Каримов, А.К.Ибрагимов, Н.К.Ризаев, Н.М. Имамова – Бухгалтерия ҳисоби: халқаро молиявий ҳисобот стандартлари / Дарслик – Т.: «MOLIYA», 2020 – 310 б.

2002 yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan Yevropa Fond birjasida muomalada bo‘lgan kompaniyalar aksiyalari uchun 2005 yildan boshlab MHXSni qo‘llash majburiyatini o‘rnatilishi belgilandi. 2002 yilda MHXSQ va Amerika moliyaviy hisobi standartlari bo‘yicha Kengash - FASB o‘rtasida konvergensiya (birlashtirish) to‘g‘risida bitim imzolandi. MHXSQ majlislari 2004 yildan Internet orqali boshlab uzatish yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish dunyo bo‘ylab sezilarli darajada oshdi. Dunyoning yetakchi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasi, buxgalteriya hisobi va hisobotning milliy tizimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy amaliyotga joriy etish va xalqaro va milliy standartlar talablarini yaqinlashtirish orqali amalga oshirish hisoblandi. Hozirda 100 dan ortiq mamlakatlar talab qiladi, avtorizatsiya ilgan va konvergensiya siyosatini tasdiqlangan.

Xalqaro standartlarning ingliz tilidagi rasmiy matnida Standartlarning umumiy nomi uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari atamasi (International Financial Reporting Standards– IFRS) qo‘llaniladi.

Ushbu standartlarga quyidagilar kiradi

- Xalqaro buxgalteriya standartlari (International Accounting Standards-IAS), Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Qo‘mitasi (International Accounting Standards Committee - IASC) tomonidan ishlab chiqilgan.
- Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (International Financial Reporting Standards – IFRS), Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi (International Accounting Standards Board -IASB) Hozirgi Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Qo‘mitasi (International Accounting Standards Committee Foundation - IASCF) tomonidan ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda ham Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son Qaroriga asosida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish dastlabki huquqiy asos yaratildi. 2021 yil 1 yanvardan boshlab, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishiga o‘tishi belgilab berildi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori ham mazkur tizimga o‘tishni jadallashtirishga asos bo‘ldi.

Yuqoridagi Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlari Respublikamiz moliya tizimida yangi bilim o‘zlashtirish, yangicha ishlashga o‘tish ma’lum mashaqqatni talab qiladi. Ammo yangi tizimga o‘tilishi buxgalterning ishlash tarzini moliyaviy axborot foydalanuvchilari, ya’ni investor manfaatlari belgilaydi, teskarisi emas.

Prezidentning mazkur qarorini buxgalterlar hamjamiyati uchun og‘riqli bo‘lsada, O‘zbekiston jamiyatining rivoji uchun o‘ta zaruriy chora deb hisoblayman, shuning uchun

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha “Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)”, “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)” va “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR) ga ega buxgalteriya xizmati xodimlar sonini ko‘paytirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shu bilan birgalikda yurtimizda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish, rivojlangan mamlakatlar soha mutaxassislari bilan o‘zaro tajriba almashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi aslida 1989 yilda ishlab chiqilgan va 2010 yilda qayta ko‘rib chiqilgan edi. Konseptual asosning dolzarbligini yanada oshirish maqsadida mazkur hujjat 2018 yil martda qayta ko‘rib chiqildi va rasmiy taqdim etildi. Ushbu o‘zgarishlar kuchga kirish sanasi 2020 yil 1 yanvar etib belgilandi va oldindan qo‘llashga ruxsat berildi. Konseptual asosning asosiy maqsadi hisobning sub’ektiv tomonlarini aks ettirishda zarur bo‘lgan yondashuvlarni belgilash va taqdim etishdan iborat.

Konseptual asosga ega bo‘lmashlikning yana bir kamchiligi fundamental tamoyillarga har bir standartda alohida-alohida murojaat qilinishi amaliyotda standartlarni bir biriga qarama-qarshi bo‘lib qolishiga olib kelishi mumkin. Bu o‘z navbatida noaniqlikka olib keladi va moliyaviy hisobotlarni o‘rinli va ro‘yi-rost taqdim etilishigata‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, konseptual asos hisob standartlari ishlab chiquvchilarini turli manfaatdor tomonlarning siyosiy bosimlariga qarshi tura olishiga yordam beradi.

“Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi” (Konseptual asos) umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadi va tamoyillarini tavsiflaydi.

Konseptual asosning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

-Muhimligi yoki ahamiyatsizligidan qat’iy nazar yuzaga kelgan muhokamali hisob muammolarini standartlarga kiritish holatlarining oldi olinadi.

-Standartlar ishlab chiqilishida siyosiy aralashuvlar ta’siridan himoya qiladi.

-Konseptual asosga ega bo‘lmagan hisob tizimlarining ba’zilarida foyda yoki zarar orqali yondashilgan standartlar yoki faqat sof aktivga asoslangan yondashuv orqali standartlar ishlab chiqilgan. Konseptual asos bu ikki yondashuvni o‘zida birlashtiradi.

Konseptual asosning **salbiy tomonlari** quyidagilardan iborat:

-Moliyaviy hisobotlar turli foydalanuvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, bitta konseptual asos barcha foydalanuvchilar manfaatlarini o‘zida ifodalay olmaydi.

-Foydalanuvchilar xilma-xilligi o‘z navbatida turli maqsadlarva tamoyillarga asoslangan hisob standartlari ishlab chiqilishini talab etadi.

-Konseptual asos standartlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda qo‘l kelishi yoki kelmasligi noaniq⁷.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, moliyaviy hisobotlarni milliy standartlar asosida joriy etish axborotlarning shaffofligi va ishonchsizlik yo‘qotishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababdan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va xalqaro tajribalar joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yo‘nalishda Prezidentimizning 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4611-son qarori ishlab chiqaruvchilarni dunyo bozorlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Buning uchun esa milliy hisob tizimimizdan to‘liq voz kechmagan holda, aksincha transformatsiyalash orqali moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga moslashish maqsadga muvofiqroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4611-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori.
3. Moliyaviy hisobotning konseptual asosi , Konseptual asos Buxgalteriya Hisobining Xalkaro Standartlari bo‘yicha Kengash tomonidan 2010 yil sentabrda chop etilgan

⁷ <https://buxgalter.uz/>

4. A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, N.M. Imamova – Buxgalteriya hisobi: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari / Darslik – T.: «MOLIYA», 2020 – 310 b.
5. Qurbonboev M. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish afzalligi nimada?”, “Adolat” elektron jurnali. №9 2020 yil
6. <https://www.ifrs.org/use-around-the-world/use-of-ifrs-standards-by-jurisdiction/israe>
7. <https://buxgalter.uz/>

